

# KONSTITUTSIYA VA QONUNLARDA TURIZMGA QIZIQUVCHI YOSHLARNI HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

Olimjonova Farog'at Dilmurod qizi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Jonajon O'zbekistonimizning konstitutsiyasi, uning qabul qilinishi,adolatli fuqarolik jamiyati, Konstitutsiyaning yoshlar hayotidagi o'rni va qanchalik darajada kerakli ekanligi, turizmga qiziquvchi yoshlar, ichki turizm, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Yosh tadbirkor, erkinlik, huquq, demokratiya, farmoyish, kadrlarni tayyorlash, biznes loyihibar, kadr, mutaxassis, xalq amaliy san'ati, tarixiy-madaniy turizm, kolleksiya, restavratsiya,

**Kirish.** Barcha tengdoshlarim qatori mening hayotimda ham Konstitutsiyaning òrni beqiyosdir. Bilim olish, sport bilan shugullanish, kasb-hunar organish, ishslash, dam olish va davolanish, chet ellerga chiqish imkoniyatiga egaman. Mustaqil O'zbekiston farzandi sifatida orzularimga yetishish yolidagi barcha eshiklar men uchun doimo ochiq ekanligini bilaman va bundan gururlanaman. Maqsadim Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, barkamol avlodning biri bolib yetishish, el-yurt ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishdan iboratdir. Muhtaram prezidentimiz o'z oldiga ulkan maqsadlar qoygan va ertangi kuniga ishonchi mustahkam yoshlar – yurtimiz kelajagidir deb ta'kidlaganlar.. Jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lganidek, Respublikamizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyamizda belgilab berilgan. Inson hayotda baxtli yashash uchun intiladi, ezgu maqsadlar sari qadam tashlaydi. U huquq va erkinliklari kafolatlangan,adolat va qonun ustuvor jamiyatdagina bunga erisha oladi. Yangi O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroni hayotdan rozi qilish yo'lidagi islohotlardan ko'zlangan maqsad ham aslida shu. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi farovon hayotning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa yoshlarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirish ular orasida jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish, ta'lim muassasalarining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bosh qomusimizning 49-moddasida fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir, deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston davlat muzeylari, madaniy meros ob'ektlari xalqimizning ana shunday boqiy merosini o'zida mujassam etgan muqaddas maskanlardan hisoblanadi. Hozirgi kunda uning "O'zbekiston xalq amaliy san'ati", "O'zbekiston madaniy meros ob'ektlari" va boshqa asosiy bo'limlarida 98 mingdan ortiq ashyo va kolleksiya saqlanmoqda. Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning bugungi tashqi iqtisodiy faoliyatida turizmning tarixiy-madaniy yo'nalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish esa, milliy-madaniy merosni asrash, restavratsiya qilish, mavjud muzeylar ishlarini takomillashtirish, ixtisoslashgan mintaqaviy muzeylar tashkil etishni tarmoqlarida turistik hamda tarixiy-madaniy imkoniyatlarni keng targ'ibot etish talab etiladi. Yangi Konstitutsiya loyihasiga mamlakatimizda xavfsiz turizmni ta'minlashga bevosita va bilvosita xizmat qiladigan muhim normalar ham kiritilmoqda. Jumladan, loyiha matnidagi 24-



moddada: “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar”, deb qayd etilgan. Bundan tashqari, yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasining 32-moddasida: “Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. Har kim O‘zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistonga to‘sinqilksiz qaytish huquqiga ega”, degan norma mustahkamlanmoqda. Bu kabi konstitutsiyaviy normalar, o‘z navbatida, mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishi tayin. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2023-yil 29 mart kuni ayni shu mavzu muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi qayd etilganidek, bu yil yurtimizda Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining yig‘ilishi o‘tkaziladi. Samarqand 2023 yilda Jahon turizm poytaxti bo‘ladi. Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, 2023 yil Vatanimizning boy madaniyati va turistik salohiyatini jahonga targ‘ib qilish yili bo‘lishi kerak. Ushbu maqolada qo‘yilgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining xalqimiz tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi ayni milliy qadriyatlarimizni, adolatli fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurish, bozor munosabatlariga o‘tish yo‘llarini belgilab berdi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizning tayanch poydevordir. Uning barcha qonunlarimiz uchun asos sifatida xizmat qilishi barchamizga ma’lum. Shu kunga qadar qabul qilingan qonunlar, qonunosti hujjatlari Konstitutsiyamiz ilg‘or qoidalarining ifodasidir. Konstitutsiyaning muqaddimasida O‘zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini e’lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglagan holda tarixiy, milliy qadriyatlarimizga tayanib, shuningdek xalqaro huquq sohasidagi umume’tirof etilgan prinsiplar asosida insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida ushbu Konstitutsiyani qabul qilganligi e’tirof etilgan. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli vujudga kelgan Qomusimiz bizga tilimizni, dinimizni, tariximizni, ma’naviyatimizni, insoniy huquqlarimizni qaytarib berdi va ularni o‘zining hayotbaxsh normalarida mustahkamlab qo‘ydi. Shu bilan birga u siyosiy qadriyatlarimizni-davlat hokimiyatini boshqarishdagi xalqning ishtirokini ta’minlab berdi. Özbekiston Respublikasining “Ta’lim tògrisida”gi Qonuni va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi asosida barcha ta’lim maskanlari zamonaviy tarzda qayta barpo etilib, jahon talablari darajasida jihozlandi. Yoshlarimizning intellektual salohiyatini yuksaltirish, bandligini ta’minalash borasida amalga oshirilayotgan keng kòlamlı ishlar özining yuksak samaralarini bermoqda. Mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy ta’lim tarbiya olishi, keyinchalik özi tanlagan kasb bøyicha ishini davom ettirishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Biz yoshlarning haq-huquq va erkinliklari kafolatlab qøyilgan Konstitutsiyamizni öqish uning har bir moddasini örganish, mazmunmohiyatini tushunish hayotimizda juda muhim òrin tutishini yaxshi bilamiz. Konstitutsiyamizda yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, oila qurish, yashash joyiga ega bo‘lish hamda o‘z iqtidor va salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratilishi huquqiy ifodasini topgan. Hozirgi vaqtida yurtimizda aholining oltmish foizidan ortig‘ini tashkil etayotgan navqiron avlod uchun davlat tomonidan keng qamrovli tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning sog‘lom bo‘lib o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minalash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 5 ta muhim tashabbusni joriy etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yigitqizlarimizning biznes loyihalari uchun “Yoshlar – kelajagimiz” davlat



dasturi doirasida 719 mlrd. soʻmlik 4 633 ta biznes loyiha amalga oshirilgan. Hududlarda 125 ta “Yoshlar mehnat guzari”, 19 ta “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazi, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnashib, alohida namuna koʻrsatayotgan yosh oilalarga 1 731 ta “Yoshlar uylari” qurilib, foydalanishga topshirildi Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi-yangi bogʻchalar, maktablar, oliy oʻquv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, madaniyat va sport inshootlari, “Temurbeklar maktabi”, “Prezident maktablari”, “Ijod maktablari” deb nom olgan mutlaqo yangi namunadagi taʼlim maskanlari bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir boʻlgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjalari qabul qilingan boʻlib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjalarni ratifikatsiya qilingan. Taʼlim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Maktabgacha taʼlim vazirligi tashkil etildi, maktab taʼlim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy oʻrtta taʼlim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy taʼlim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy oʻquv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy taʼlim shakllari tiklandi. Keyingi uch yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi. Bu dargohlarda taʼlim-tarbiya oлган yoshlar mamlakatimizning kuch-qudrati, dunyodagi mavqeini oshirishga xizmat qilishiga ishonamiz. Shuningdek, 2020 yil 23 sentyabrdan Özbekiston Respublikasining "Taʼlim tögrisida"gi Qonuni yangidan qabul qilindi. Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni koʻzlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda. Konstitutsiyamiz yoshlar huquqlari taʼminlanishining asosiy kafolati boʻlmoqda. Jamiyatimizda qonun ustuvorligini taʼminlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud boʻlganidek, Respublikamizning asosiy qonuni boʻlmish Konstitutsiyamizda belgilab berilgan. Inson hayotda baxtli yashash uchun intiladi, ezgu maqsadlar sari qadam tashlaydi. U huquq va erkinliklarini kafolatlangan,adolat va qonun ustuvor jamiyatdagina bunga erisha oladi. Yangi Oʻzbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroni hayotdan rozi qilish yoʻlidagi islohotlardan koʻzlangan maqsad ham aslida shu. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi farovon hayotning mustahkam poydevori boʼlib xizmat qilmoqda. Yoshlarning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirish ular orasida jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish, taʼlim muassasalarining samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bōlsam, biz yoshlarni bilim olishimiz, erkin sayohat qilishimiz, qiziqishimizga qarab kasb-hunar egallashimiz, malakali mutaxassis bōlib voyaga yetishimizda, bizni kuchli, bilimli, dono va baxtli bōlib yashashimizni taʼminlashda Konstitutsiya asosiy hujjat bōlib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda davlatimizning bosh maqsadi, bu aynan Harakatlar strategiyasi ustuvor yoʼnalishlarida belgilangan. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini taʼminlash, sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash, yuridik yordam va xizmat koʻrsatish tizimini takomillashtirish, aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, sogʼliqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-si̇esiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish kabi vazifalarini bajara borib, insonni farovon yashashini taʼminlash, uni ijtimoiy muhofaza qilish, bir soʻz bilan aytganda “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosida “Inson-jamiyatdavlat” degan yangi tamoyilni hayotga keng tadbiq qilishdan iborat. Konstitutsianing hayotimizdagagi oʻrni va ahamiyati niroyatda kattadir. Rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech bir shaxs oʻz ijtimoiy “Uchinchi renessans: ilm-fan va taʼlim taraqqiyoti istiqbollari shaxsiy hayotini, oʻz qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi. Barchamiz kundalik hayotimizda Konstitutsiya belgilab bergen normalarga teztez murojaat qilib turamiz. Chunki, aynan Qomusimizdagina insonning haq-huquqlarini himoya qilish ishonchli ravishda kafolatlangan. Shuning uchun Konstitutsiya qoidalarini puxta oʼrganish, uni bilish va



hurmat qilish zarur. Yangi O‘zbekistonda erkin va mustaqil fikrlaydigan, uning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan, o‘z so‘zini aytishga qodir yoshlarimiz uchun ham bu Qomus kundalik hayotlarida asosiy dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  2. Özbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning "Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini örganishni tashkil etish tögrisida"gi Farmoyishi. 04.01.2001. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  3. Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Özbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bøyicha Harakatlar strategiyasi tögrisida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 07.02.2017. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  4. Özbekiston Respublikasining "Ta'lif tögrisida"gi Qonuni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2020.
- 
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.
  7. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
  8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O‘zbekiston, 2017.
  9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017. 8. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.Uz>

